

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.I.04.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

OTEMISOV SHARAPAT JANGABAYEVICH

AGRAR TARMOQDA KUNJUT YETISHTIRISHNING IQTISODIY
SAMARADORLIGINI OSHIRISH
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)

08.00.04-Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Otemisov Sharapat Jangabayevich

Agrar tarmoqda kунjut yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida) 3

Отемисов Шарапат Жангабаевич

Повышение экономической эффективности выращивания кунжута в аграрном
секторе (на примере Республики Каракалпакстан) 29

Otemisov Sharapat Jangabayevich

Increasing the economic efficiency of sesame cultivation in the agricultural sector
(the case of the Republic of Karakalpakstan)57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 61

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.I.04.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

OTEMISOV SHARAPAT JANGABAYEVICH

AGRAR TARMOQDA KUNJUT YETISHTIRISHNING IQTISODIY
SAMARADORLIGINI OSHIRISH
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)

08.00.04-Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus – 2026

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Iqt4660 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sauxanov Janibek Kazievich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Salayev San'atbek Kamilovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Aliyev Yashnarjon Yegamberdiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.I.04.12 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil " 07 " 05 kuni soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-ressurs markazida tanishish mumkin (507 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78, e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil " 22 " 04 kuni tarqatildi.
(2026-yil " 22 " 04 dagi № 127 raqamli reestr bayonnomasi)


G.X.Utemuratova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari
doktori, professor


R.B.Utemuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, PhD., dotsent


B.S.Qalmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan eksportbop mahsulotlarni yetishtirish va ularni chuqur qayta ishlash masalalari jahon miqyosida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, yog'-moy sanoati uchun strategik xomashyo hisoblangan kunjut (sesame) yetishtirishning ahamiyati so'nggi yillarda keskin oshmoqda. Jahonda ushbu ekin yuqori eksport salohiyatiga ega bo'lib, oziq-ovqat, farmasevtika, kimyo va kosmetika sanoatida keng qo'llaniladi. Xalqaro statistik ma'lumotlarga ko'ra, "2024-yil holatiga dunyo bo'yicha kunjut ekiladigan maydon hajmi 12 million gektardan ortiqni tashkil etadi. So'nggi 10 yillikda jahon bo'yicha kunjut yetishtirish hajmi barqaror o'sib, yalpi hosil hajmi 7,5-8,0 mln. tonna atrofida shakllandi. O'rtacha hosildorlik esa 7-8 s/ga atrofida bo'lib, ayrim rivojlangan texnologiyalarni qo'llagan davlatlarda bu ko'rsatkich 12–14 s/ga gacha yetmoqda"¹. Bundan ko'rinadiki, bugungi kunda agrar tarmoqda kunjut yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish dolzarb hisoblanadi.

Jahonda agrar tarmoqda kunjut yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha daromadlilik, hosildorlik va bozorga chiqishni yaxshilashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar izchil ravishda olib borilmoqda. Hosildorlikni oshiradigan, qurg'oqchilik va issiqlikka chidamli navlar seleksiyasi hamda genetik resurslarni tahlil qilish, suv va ozuqa moddalari boshqaruvini optimallashtirish orqali resurs unumdorligini ko'tarish, daladan bozorgacha bo'lgan qiymat zanjirida sifat va xavfsizlik standartlarini ta'minlash orqali eksport imkoniyatini kengaytirish, yig'im-terim va saqlashda yo'qotishlarni kamaytirish hisobiga real tushumni oshirish, fermer xo'jaliklari kesimida xarajat-foyda, risk va samaradorlik determinantlarini iqtisodiy-ekonometrik baholash orqali boshqaruv qarorlarini takomillashtirish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishda kunjut yetishtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aholining jadal o'sib borishi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda moyli ekinlarga bo'lgan talabning ham doimiy oshib borishiga olib keladi. Buni inobatga olgan holda "hozirgi kunda mamlakatimizdagi mavjud 700 ming gektarga yaqin lalmi yerning bor-yo'g'i 300 ming gektariga g'alla va moyli ekinlar ekilayotganligi va qolgan 400 ming gektar yerdan ham shunday maqsadda foydalanish"² vazifasi belgilab berildi. Mazkur omillar Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida ham dolzarb hisoblanadi. Hududning iqlim sharoiti, yozning issiq va quruq bo'lishi, sho'rlanish darajasining o'rtacha bo'lishi hamda sug'orish imkoniyatlari kunjut yetishtirish uchun qulay agroiqlimiy sharoit yaratadi. Shu bilan birga, eksport salohiyatini oshirish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, mahalliy fermer xo'jaliklarida resurslardan samarali foydalanish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyati mavjud. Shu

¹ Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). FAOSTAT Database: Sesame seed production and trade statistics (2010–2024). <https://www.fao.org/faostat>

² O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlariga tabrik nuqti. 06.12.2019. <https://president.uz/oz/lists/view/3117>

sababli, agrar tarmoqda kunjut yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi nafaqat milliy oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, balki xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, valyuta tushumini ko'paytirish va hududiy iqtisodiy o'sishni jadallashtirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-fevraldagi PF-18-son «Qishloq xo'jaligi ekin maydonlari unumdorligini oshirish, tarmoqqa investitsiyalar jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida», 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son ««Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2017-yil 7-fevraldagi PF-4747-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari, 2025-yil 28-martdagi PQ-131-son «Qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish samaradorligini oshirish va mahsulot yetishtirish hajmini ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2024-yil 20-iyundagi PQ-227-son «Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2023-yil 5-apreldagi PQ-113-son «2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida», 2022-yil 30-maydagi PQ-273-son «Qoraqalpog'iston Respublikasining shimoliy tumanlarida tadbirkorlikni rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida», 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son «2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-maydagi 331-son «Qoraqalpog'iston Respublikasida kunjut va mosh ekinlarini yetishtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida», 2025-yil 14-iyuldagi 438-son «Respublikada moyli ekinlar yetishtirishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2022-yil 16-dekabrda 711-son «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarga subsidiya berish axborot tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. So'nggi yillarda dunyo miqyosida kunjut yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish yo'nalishida keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Kunjut (*Sesamum indicum* L.) eng qadimiy moyli ekinlardan biri bo'lib, jahon oziq-ovqat tizimida muhim o'rin tutadi. Kunjut yetishtirish va ulardan foydalanishning umumiy nazariy va uslubiy asoslari borasida xorijiy olimlar va tadqiqotchilardan G.Xu, W.Zhang, D.Myint, S.A.Gilani,

M.Kawase, K.N.Watanabe, B.B.Jakusko, B.Jiang, D.M.Hegde, R.Yadav, C.Wacal, B.T.Gazali va shu kabilarning³ fundamental asarlarida bayon etilgan.

Mintaqaviy darajada kunjut ekiniga doir ilmiy izlanishlar nisbatan kamroq bo‘lib, kunjut navlarini mahalliy iqlimga moslashtirish, agrotexnik tadbirlarni takomillashtirish, suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish borasida tadqiqotlar olib borilgani holda iqtisodiy samaradorlik, tannarx dinamikasi va bozor integratsiyasi masalalari bu mintaqada yetarli darajada yoritilmagan. MDH davlatlarida bu borada birqator olimlar tadqiqot va izlanishlar olib borishgan, ularga N.B.Kishlyan, L.P.Zbrailova, A.Gapurov, G.Novruzov, K.Mammetgulov, M.Sh.Asfandiyarova, M.I.Cagirgan, D.I.Obydalo, I.A.Ogarkova, T.Y.Vaxrushevalar tomonidan yoritib berilgan⁴.

O‘zbekistonda olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ko‘proq agrotexnika, urug‘chilik va hosildorlikka ta’sir etuvchi omillarni o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, qiymat zanjiri, iqtisodiy rentabellik, eksport bozori talablari va iqlim risklarini chuqur tahlil qilishga bag‘ishlangan ishlar hali yetarli emas. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan E.B.Pirnazarov, B.X.Amanov, R.Kalandarov, M.Amanova, J.K.Sauxanov, A.Bozorboyev, S.Ravshanov, K.Isabayev, O.Kurbonova, S.Zakirova, H.Abdukhakimova, G.Sotiboldiyeva va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan⁵.

Mazkur muammo bo‘yicha ilmiy nashrlarning mavjudligi kunjut yetishtirish iqtisodiy samaradorligini yetarli ko‘rsatib bera olmaydi. Bu esa qishloq xo‘jaligi

³ Xu G., Zhang W. Analysis of the changing trend of world sesame production and trade structure. *World Agric.* 2018;10:131–137; Myint D., Gilani S.A., Kawase M., Watanabe K.N. Sustainable Sesame (*Sesamum indicum* L.) Production through Improved Technology: An Overview of Production, Challenges, and Opportunities in Myanmar. *Sustainability.* 2020; Jakusko B.B. Effect of Row Spacing on Growth and Yield of Sesame (*Sesamum indicum* L.) in Yola, Adamawa State, Nigeria. *IOSR J. Agric. Vet. Sci.* 2013;2:36–39; Jiang B. Analysis of China’s sesame market prospects and development strategies. *Grain Sci. Technol. Econ.* 2019;44:143–146; Hegde D.M. *Handbook of Herbs and Spices.* 2nd ed. Volume 2. Elsevier; Amsterdam, The Netherlands: 2012. Sesame; pp. 449–486; Yadav R. and at al. (2022) Current Research Trends and Prospects for Yield and Quality Improvement in Sesame, an Important Oilseed Crop. *Front. Plant Sci.* 13:863521; Wacal C. and at al. (2021). Analysis of sesame seed production and export trends; challenges and strategies towards increasing production in Uganda. *OCL* 28: 4; Gazali B.T. and at al. Production and achievements of *Sesamum indicum* industry in the world: Past and current state// *Oil Crop Science*, Volume 9, Issue 3, 2024, - Pages 187-197

⁴ Кишлян Н.В. и др. Биологические особенности и возделывание кунжута (обзор)// Труды по прикладной ботанике, генетике и селекции. 2021;182(4):156-165; Zbrailova L.P. Study of the collection sesame samples in the Rostov region//*Grain Economy of Russia*, 2022; (6):40; Гапуров А., Новрузов Г., Мамметгулов К. Пособие по выращиванию кунжута. -Ашхабад: Туркменская государственная издательская служба, 2021. - 24 с.; Асфандиярова М.Ш. и др. Перспективные образцы кунжута для целей селекции в аридных условиях Астраханской области // *Масличные культуры.* 2017. №4 (172); Cagirgan M.I. Selection and morphological characterization of induced determinate mutants in sesame. *Field Crops Research.* 2006;96(1):19-24; Обыдало Д.И., Огаркова И.А. Кубанский кунжут - родом из Индии. В кн.: *История научных исследований во ВНИИМК за 90 лет.* Краснодар; 2002. С.95-100; Вахрушева Т.Е. Кунжут. В кн.: *Масличные культуры для пищевого использования в России (проблемы селекции, сортимент).* Санкт-Петербург: ВИП; 1998. С.24-25.

⁵ Pirnazarov E.B., Amanov B.X. Botanical description, valuable morphological and agronomic traits, and prospects for cultivation of sesame//*Современная биология и генетика.* 2025. -№11; Kalandarov, Ruslan & Amanova, Makhfurat. (2023). Creation of primary resources for creation of early, high-yield varieties of sesame for the northern regions of Uzbekistan. *E3S Web of Conferences.* 421; Сауханов Ж.К. Аграр тармоқда ташки самараларни оптимал тартиблаштириш ва трансакция харажатларини пасайтириш механизмлари (Қорақалпоғистон Республикаси мисолида). Иқт. фан. док. илм. дар. ... дисс. автореф. –Урганч, 2022. – 80 б; Bozorboyev A., Ravshanov S. (2025). Characteristics of the sesame plant and problems in harvesting its harvest. *science of the new era: innovative ideas and solutions for humanity*, 1(6), 6-9; Isabaev, Kasimbek & Kurbonova, Oftoboyim & Zakirova, Sanoatkhon & Abdukhakimova, Khusnidakhon & Sotiboldiyeva, Guzalkhon. (2024). Efficiency of seed production in growing sesame variety in the southern region of Uzbekistan. *E3S Web of Conferences.* 563. 03013.

faoliyati samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini asoslash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu omillar mazkur dissertasion tadqiqotning maqsad va vazifalarini belgilab berdi.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertasiya ishi Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘ davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq F-1-77 raqamli «Janubiy Orol bo‘yi ekologik sharoitida Shimoliy-g‘arbiy O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy jadal rivojlantirishning mintaqaviy strategiyasi, metodologiyasi hamda metodikasi (Quyil Amudaryo iqtisodiy tumani misolida)» mavzusidagi fundamental ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog‘iston Respublikasida agrar tarmoqda kunjut yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida kunjut yetishtirishning hozirgi holatini, ekin maydoni, hosildorlik, yalpi hosil va tannarx ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;

kunjut yetishtirishda tabiiy-iqlim, iqtisodiy va texnologik omillarning samaradorlikka ta’sirini aniqlash;

kunjut yetishtiruvchi xo‘jaliklarning resurslardan foydalanish darajasi, ishlab chiqarish xarajatlari va foyda miqdorini iqtisodiy tahlil asosida baholash;

kunjut yetishtirishni rivojlantirishda davlat qo‘llab-quvvatlash choralari, agrar siyosat va bozor infratuzilmasining rolini o‘rganish;

innovatsion texnologiyalar, suv tejovchi sug‘orish tizimlari va raqamli yechimlar asosida kunjut yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish;

kunjut yetishtirish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini prognoz qilish asosida amaliy tavsiyalar tayyorlashga doir taklif va tavsiyalar berish.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib Qoraqalpog‘iston Respublikasi kunjut yetishtiruvchi fermer va dehqon xo‘jaliklari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib kunjut ekinini yetishtirishda ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligi, mehnat, yer, suv va moddiy-texnika vositalarining iqtisodiy qaytimi, ishlab chiqarish xarajatlari tuzilmasi, bozor narxlarini shakllanishi va foyda darajasi bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida iqtisodiy tahlil, abstrakt fikrlash, grafik, so‘rovnoma, monografik kuzatish va ekspert baholash, induksion tahlil, deduksion tahlil, iqtisodiy tahlil, statistik tahlil, regression-korrelyatsion tahlil va prognoz kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda o‘z aksini topgan:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “kunjut yetishtirish strategiya modeli” tushunchasining iqtisodiy mazmuni model tarkibiga “kutilgan foyda–xavf (CVaR/sug‘urta)–bozor narxi ssenariylari” asosida qaror qabul qilish bloki hamda resurs cheklavlari (suv limiti, texnika vaqti, kredit quvvati)ni inobatga olgan dinamik optimallashtirish mezonlarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

kunjut yetishtirishning zamonaviy ilg'or amaliyotiga ko'ra sug'orish texnologiyasini qo'llash yo'nalishida hosildorlik ($H = +30-40\%$), sertifikatlash tizimini takomillashtirish yo'nalishida eksport narxi ($EN = +15-35\%$), qayta ishlashni kengaytirish yo'nalishida qo'shilgan qiymat ($QQ = 3-5$ marta)ni oshirish imkon chegaralari asoslangan;

kunjut yetishtirish, uni qayta ishlash va eksport qilish holatlarida samaradorlikning o'zgarib borishi xom kunjut eksporti (A ssenariy), o'rtacha qayta ishlangan mahsulot eksporti (B ssenariy), chuqur qayta ishlangan mahsulot (D ssenariy) ga ko'ra olinadigan daromadlar o'zgarishini baholash orqali qiymat zanjirini "xom urug' - tozalangan urug' - yog' - tahini - premium mahsulotlar" yo'nalishida chuqurlashtirish taklifi asoslangan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida mavjud tendensiyalarni hisobga olgan holda ko'p variantli ekonometrik modellar yordamida kunjut yetishtirish samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarning 2025-2030 yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Kunjut yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash uslubiyoti takomillashtirilib, unda ishlab chiqarish xarajatlari, hosildorlik, foyda va rentabellik darajalarini kompleks tarzda hisoblashning mintaqaviy sharoitlarga mos modeli ishlab chiqilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida kunjut yetishtirishni rivojlantirishning iqtisodiy omillari aniqlanib, ularga ta'sir etuvchi asosiy ichki va tashqi determinantlar tizimi ishlab chiqilgan;

kunjut yetishtirishda resurslardan samarali foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib, yer unumdorligini oshirish, suv tejankor texnologiyalarni (tomchilatib sug'orish) keng joriy etish, zamonaviy urug'lik bazasini shakllantirish bo'yicha amaliy choralar belgilangan;

kunjut mahsulotlari qiymat zanjirini shakllantirish hamda ularni chuqur qayta ishlash asosida qo'shimcha qiymat yaratishning iqtisodiy afzalliklari hisoblab chiqilgan;

kunjutni eksportga yo'naltirilgan strategik mahsulot sifatida rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilib, xalqaro tajriba asosida O'zbekiston kunjutini global bozorga raqobatbardosh narxda chiqarish imkoniyatlari aniqlab berilgan;

tadqiqot natijalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, "Agroklastar" tizimlari va ilmiy-ta'lim muassasalari faoliyatida amaliy qo'llash uchun tavsiya etilgan;

kunjut yetishtiruvchi xo'jaliklar uchun iqtisodiy tahlil dasturi (model) ishlab chiqilib, u ishlab chiqarish samaradorligini prognozlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda amaliy yordam berishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborotlar bazasi rasmiy manbalaridan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi hisobotlaridan, mintaqada qishloq hududlarida istiqomat qilayotgan aholidan

olingan so‘rovnomalar natijalaridan olingani hamda respublika va xorij iqtisodchi olimlarining sohaga oid tadqiqotlarining ilmiy-uslubiy natijalarga tayanilganligi, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari ilmiy jihatdan kunjut yetishtirish samaradorligini baholash metodikasini takomillashtirishga, amaliy jihatdan esa Qoraqalpog‘iston sharoitida resurslardan oqilona foydalanish, hosildorlikni oshirish va eksport salohiyatini kuchaytirish orqali agrar tarmoq barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi agrar xo‘jaliklarida kunjut yetishtirish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, foyda va rentabellikni ko‘tarish hamda eksport imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida agrar tarmoqda kunjut yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “kunjut yetishtirish strategiya modeli” tushunchasining iqtisodiy mazmunini model tarkibiga “kutilgan foyda–xavf (CVaR/sug‘urta)–bozor narxi ssenariylari” asosida qaror qabul qilish bloki hamda resurs cheklovlari (suv limiti, texnika vaqti, kredit quvvati)ni inobatga olgan dinamik optimallashtirish mezonlarini kiritish orqali takomillashtirish bilan bog‘liq nazariy-uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Biznes matematika” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-aprel, 136-son buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda model tarkibiga qaror qabul qilish bloki hamda dinamik optimallashtirish mezonlarini kiritish orqali takomillashtirilgan “kunjut yetishtirish strategiya modeli” tushunchasi bo‘yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

kunjut yetishtirishning zamonaviy ilg‘or amaliyotiga ko‘ra sug‘orish texnologiyasini qo‘llash yo‘nalishida hosildorlik ($H = +30-40\%$), sertifikatlash tizimini takomillashtirish yo‘nalishida eksport narxi ($EN = +15-35\%$), qayta ishlashni kengaytirish yo‘nalishida qo‘shilgan qiymat ($QQ = 3-5$ marta)ni oshirish imkon chegaralari bo‘yicha taklif Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 22-dekabrda 02/02-4940-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida kunjut yetishtirishning sug‘orish texnologiyasini qo‘llash, sertifikatlash tizimini takomillashtirish, qayta ishlashni kengaytirish yo‘nalishlarida qo‘shilgan qiymatni oshirish imkoni yaratilgan;

kunjut yetishtirish, uni qayta ishlash va eksport qilish holatlarida samaradorlikning o‘zgarib borishi xom kunjut eksporti (A ssenariy), o‘rtacha qayta ishlangan mahsulot eksporti (B ssenariy), chuqur qayta ishlangan mahsulot (D ssenariy) ga ko‘ra olinadigan daromadlar o‘zgarishini baholash orqali qiymat zanjirini “xom urug‘ - tozalangan urug‘ - yog‘ - tahini - premium mahsulotlar”

yoʻnalishida chuqurlashtirish taklifi Qoraqalpogʻiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligi tomonidan foydalanilgan (Qoraqalpogʻiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligining 2025-yil 22-dekabrda 02/02-4940-son maʼlumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida kunjut mahsulotlarini 10,8 AQSh dollari/kg ga qadar sotish imkoniyati yuzaga kelishi orqali daromad 65,9 mln. AQSh dollariga yetishi, import kunjutni qayta ishlash orqali eksportdan 3,35 AQSh dollari/kg sof foyda olib, 250 kishilik doimiy ish oʻrni yaratish mumkinligi asoslangan;

Qoraqalpogʻiston Respublikasida mavjud tendensiyalarni hisobga olgan holda koʻp variantli ekonometrik modellar yordamida ishlab chiqilgan kunjut yetishtirish samaradorligini ifodalovchi asosiy koʻrsatkichlarning 2025-2030 yillarga moʻljallangan prognoz qiymatlari Qoraqalpogʻiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligi tomonidan foydalanilgan (Qoraqalpogʻiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligining 2025-yil 22-dekabrda 02/02-4940-son maʼlumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududda yillik 20-30 mln. USD atrofida qoʻshimcha sof foyda, 4-5 yil ichida investitsiya qaytishi, minglab yangi ish oʻrinlari, suv va yer resurslaridan samarali foydalanish va eksport potensialining sezilarli oshishi kabi muhim ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga erishishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 17 ta ish, jumladan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, 1 ta xorijiy jurnallarda maqola chop qilingan.


Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 23 ta statistik, tahliliy, hisob-kitob jadvallari, 28 ta rasm va 6 ta ilovalarni qamrab olgan holda 131 sahifada bayon yetilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, shuningdek, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Agrar tarmoqda kunjut yetishtirishning iqtisodiy samaradorligining nazariy asoslari”** deb nomlanib, kunjut yetishtirishning tarixiy rivojlanishi, zarurati va ahamiyati, kunjut yetishtirishning oʻziga xos xususiyatlari, iqtisodiy mohiyati, samaradorlikni baholash usullari, agrar tarmoqda kunjut yetishtirishda ilgʻor xorijiy mamlakatlar tajribasi oʻrganildi va amaliy ahamiyati yoritildi.

Kunjut (sesame) – yuqori qoʻshimcha qiymatga ega boʻlgan qishloq xoʻjaligi mahsuloti boʻlib, uni qayta ishlash orqali juda keng turdagi mahsulotlar olinadi. Quyida kunjut asosida olinadigan mahsulotlar tarmoqlar boʻyicha tasniflangan holda keltiriladi (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlarida kunjutdan olinadigan mahsulot turlari⁶

⁶ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Yuqoridagi tahlil natijalari asosida olingan ko'rsatkichlardan kelib chiqib, tadqiqotlar davomida kunjut ekinini yetishtirishda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari umumlashtirildi (1-jadval).


1-jadval

Kunjut yetishtirish iqtisodiy samaradorligini baholash ko'rsatkichlari⁷

№	Ko'rsatkich nomi	Iqtisodiy mazmuni	Aniqlash uslubiyati	Ahamiyati
1	Kunjut yetishtirishga qilingan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi	Kunjut ishlab chiqarishga sarflangan investitsiya qancha qo'shimcha daromad keltirganini ko'rsatadi	$KS_I = \frac{DQ}{\sum I_K}$ KS_I – investitsiya samaradorligi koeffitsiyenti DQ – qo'shimcha daromad (so'm) $\sum I_K$ – kunjutga kiritilgan jami investitsiya (so'm)	Bir so'mlik investitsiya evaziga qancha daromad olinganini aniqlaydi
2	Diskontlangan daromad ko'rsatkichi	Joriy qiymatlarni kelajakda olinadigan daromadlar orqali ifodalash	$DD_K = DQ \cdot (1 + r)^x$ r – bank foiz stavkasi x – yillar soni	Investitsiya uzoq muddatli bo'lgani uchun risklarni kamaytirib baholaydi
3	Kunjut yetishtirishdan pul daromadi	Kunjut sotishdan olingan tushumni aniqlaydi	$P_D = Q \cdot B$ Q – yetishtirilgan kunjut miqdori (kg) B – bozordagi narxi (so'm/kg)	Produktivlik va bozor kon'yunkturasining daromadga ta'sirini ko'rsatadi
4	Kunjut yetishtirishdan yalpi foyda	Daromad va xarajatlar farqi sifatida aniqlanadi	$YF = P_D - X$ X – ishlab chiqarish xarajatlari (so'm)	Fermerning real foydasini ko'rsatadi
5	Kunjutning tannarxi	Mahsulot birligiga qancha xarajat to'g'ri kelishini ko'rsatadi	$T = \frac{X}{Q}$ T – tannarx (so'm)	Xarajatlarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishni baholaydi
6	Rentabellik darajasi	Har 100 so'mlik xarajat evaziga qancha foyda olinayotganini bildiradi	$R = \frac{YF}{X} \cdot 100\%$ R – rentabellik darajasi (%)	Kunjut ekishning iqtisodiy foydaliligini ko'rsatadi
7	Yer resursidan foydalanish samaradorligi	Yer maydonining iqtisodiy qaytimi	$YeS = \frac{P_D}{S}$ S – ekin maydoni (ga)	Hosildorlik va rentabellikni hudud kesimida solishtirish imkonini beradi
8	Mehnat samaradorligi	Bir ishchiga to'g'ri keladigan daromadni aniqlaydi	$MS = \frac{P_D}{I_{sh}}$ I_{sh} – mehnat sarfi (kishi/kun)	Mehnat unumdorligini baholashga yordam beradi
9	Suvdan foydalanish samaradorligi	1 m ³ suv evaziga qancha daromad olinganini bildiradi	$SS = \frac{P_D}{M_s}$ M_s – Olingan suv miqdori	Qishloq xo'jaligida suv tanqisligida juda muhim

⁷ Muallif tomonidan tizimlashtirilgan

“Kunjut yetishtirish strategiya modelining metodologik tuzilmasi” agrar ishlab chiqarishda kunjut yetishtirish jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish, bozor noaniqliklari va resurs cheklovlarini hisobga olgan holda optimal boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun zarur hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. Kunjut yetishtirish strategiya modelining metodologik tuzilmasi⁸

2-jadval

Kunjut yetishtirish strategiya modelining asosiy elementlari⁹

No	Model komponenti	Mazmuni	Oʻlchov birligi
1	Kutilgan foyda	hosil × narx – ishlab chiqarish xarajatlari	soʻm/ga
2	Risk koʻrsatkichi	CVaR yoki variant	%
3	Narx ssenariylari	optimistik, realistik, pessimistik	AQSh dollari/tonna
4	Sugʻurta mexanizmi	hosil yoki daromad sugʻurtasi	%
5	Suv resursi	irrigatsiya normasi	m ³ /ga
6	Texnika resursi	agrotexnika ishlarining davomiyligi	soat
7	Kredit resursi	investitsiya va aylanma mablagʻ	mln. soʻm

2-jadvalda kunjut yetishtirish strategiya modelining iqtisodiy va tashkiliy asoslarini tizimli ravishda ifodalaydi. Undagi elementlar oʻzaro bogʻliq holda qoʻllanilib, bozor sharoitlari, risk omillari va resurs cheklovlarini hisobga olgan holda kunjut yetishtirishning optimal strategiyasini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Natijada qishloq xoʻjaligi ishlab chiqaruvchilari uchun iqtisodiy jihatdan samarali va barqaror ishlab chiqarish modelini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

⁸ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

⁹ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Kunjut narxining ehtimoliy bozor ssenariylari¹⁰

№	Ssenariy	Narx (AQSh dollari/tonna)	Ehtimollik	Kutilgan daromad (mln. so'm/ga)
1	Pessimistik	1300	0,25	5,2
2	Realistik	1600	0,50	6,8
3	Optimistik	2000	0,25	8,4

3-jadvalda kunjut mahsulotining ehtimoliy bozor ssenariylari keltirilgan bo'lib, ular narxlarning optimistik, realistik va pessimistik variantlarda shakllanishini ifodalaydi. Mazkur ssenariylar bozor kon'yunkturasi, talab va taklif muvozanati hamda eksport sharoitlariga bog'liq holda kutilgan daromad darajasini baholash va strategik ishlab chiqarish qarorlarini asoslash imkonini beradi.

Dinamik optimallashtirish asosida kunjut yetishtirishning optimal varianti¹¹

№	Variante	Ekin maydoni (ga)	Suv sarfi (m ³ /ga)	Umumiy foyda (mln. so'm)	Risk darajasi
1	An'anaviy strategiya	60	3000	360	yuqori
2	Sug'urta strategiyasi	55	2800	340	o'rta
3	Diversifikatsiya	50	2700	320	past
4	Optimal model	70	2900	420	minimal

4-jadvalda dinamik optimallashtirish asosida kunjut yetishtirishning turli strategik variantlari iqtisodiy jihatdan taqqoslangan.

Dunyoning asosiy kunjut urug'i yetishtiruvchi mamlakatlari xususiyatlarini o'rganib, ularni aniqlash orqali Qoraqalpog'iston Respublikasiga tatbiq etish imkoni o'rganildi (5-jadval).

Dunyoning asosiy kunjut urug'i yetishtiruvchi mamlakatlari xususiyatlari¹²

Davlat	Hosildorlik, s/ga	Eksport yo'nalishi	Asosiy yutuqlar
Xitoy	13–16	Yaqin Sharq, Yevropa	Raqamli agrotexnologiyalar, qayta ishlash sanoati
Hindiston	8–11	Global	Organik yetishtirish, navlar diversifikatsiyasi
Efiopiya	7–10	Premium eksport	Sertifikatsiya, qora navlar
Tanzaniya	6–9	Osiyo bozorlar	Shartnoma asosidagi yetishtirish
Nigeriya	7–10	Xitoy, Turkiya	IPM tizimi, chorvachilik ozuqa sanoati
Sudan	7–9	Xitoy, Turkiya	Qurg'oqchilikka chidamli agrotexnika

¹⁰ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

¹¹ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

¹² Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Yuqorida keltirib o‘tilgan mamlakatlarning kunjut yetishtirish borasidagi tajribalardan foydalangan holda, Qoraqalpog‘iston Respublikasiga ham bir qator tajribalarni joriy etish mumkin (6-jadval).

6-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida kunjut yetishtiruvchi ilg‘or mamlakatlar tajribalaridan foydalanish imkoniyatlari

№	Yo‘nalish	Yetakchi mamlakatlar amaliyoti	Kutiladigan samaradorlik
1	Sug‘orish texnologiyasi	Tomchilatib sug‘orish, suv tejovchi tizim	Hosildorlik +30–40%
2	Kooperatsiya	Klaster va kooperativ tizimi	Barqaror bozor, yuqori eksport narxi
3	Agrotexnika	Dron, GPS, raqamli monitoring	Resurs tejalishi, tannarx pasayishi
4	Sertifikatsiya	Organic, Fair Trade	Eksport narxi +15–35%
5	Qayta ishlash	Moy, tahina, pastalar	Qo‘shilgan qiymat 3–5 martaga ortadi

Qoraqalpog‘istonda kunjut yetishtirish hajmi 2010-yillargacha juda past bo‘lgan. So‘nggi yillarda ijobiy trend kuzatilmoqda. Eksport uchun ulkan bozor mavjud, ammo qayta ishlash zanjiri yetarli darajada rivojlanmagan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun kunjut yetishtirishda xorijiy tajribalarni joriy etishning taqqoslama jadvali orqali o‘rganib chiqildi (7-jadval).

7-jadval

Qoraqalpog‘iston uchun kunjut yetishtirishda xorijiy tajribalarni joriy etishning taqqoslama jadvali

№	Mamlakat	Moslik sababi	Qoraqalpog‘iston uchun asosiy afzalliklar	Kutiladigan natija
1	Hindiston	Qurg‘oqchilik sharoitiga mos agrotexnologiyalar, organik ishlab chiqarish tajribasi	Tomchilatib sug‘orish kengayadi, organik kunjut eksporti yo‘lga qo‘yiladi	Premium bozorlarga chiqish orqali daromad 30–50% gacha oshadi
2	Xitoy	Qayta ishlash, raqamlashtirilgan agroklastlar	Moy, tahina, shrot ishlab chiqarish; qo‘shimcha qiymat 4–5 baravar yuqori	Eksport mustaqilligi, ichki sanoatga turtki bo‘ladi
3	Efiopiya	Qora kunjut navi, xalqaro sertifikat	Premium bozorlar: Yaponiya, Koreya, Turkiya; “Organic”, “Fair Trade”	Narx ustamasi 25–35% yuqori bo‘lgan nufuzli brend yaratiladi
4	Tanzaniya	Kooperatsiya va shartnoma asosidagi xarid tizimi	Fermer mahsuloti kafolatli xarid qilinadi, risk kamayadi	Barqaror daromad va klasterlash kuchayadi
5	Nigeriya	Kunjut shrotini chorvachilik ozuqasi sifatida qo‘llash tajribasi	Ozuqa xarajatlari qisqaradi, import o‘rnini bosish	Fermer va dehqon xo‘jaliklari uchun qo‘shimcha daromad manbai

7-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Respublika uchun eng maqbul kunjut yetishtirish strategiya modeli bitta emas, **aralash tajriba model bo‘lib, Tanzaniya modeli** orqali fermerlar daromadini barqarorlashtirish, **Nigeriya modeli orqali** chorvachilik bilan integratsiyalashtirish, **Xitoy modeli orqali** sanoatni rivojlantirish va qo‘shimcha qiymat yaratish, **Hindiston va Efiopiya modellari asosida** eksportda premium narxga chiqish kerak bo‘ladi.

Dissertatsiyaning “Agrar tarmoqda kunjut yetishtirish samaradorligi tahlili, hozirgi holati, baholash usullari” deb nomlangan II bobida hududning agroiqlimiy sharoiti, moyli ekinlar yetishtirishning hozirgi holati, kunjut yetishtirishda resurslardan samarali foydalanishning hozirgi holati, kunjut yetishtirish qiymat zanjirida iqtisodiy samaradorlikka ta’sir etuvchi omillar tahlili amalga oshirilgan.

Qoraqalpog‘iston kunjut yetishtirish bo‘yicha eng yuqori o‘shish sur‘atiga ega hududlardan biri bo‘ldi. 2010-yildagi 0,8 ming tonna hajm 2024-yilda 6,1 ming tonnaga yetib, 5,3 ming tonna yoki 7,6 barobar o‘shish qayd etildi. 2010–2024-yillar davomida Qoraqalpog‘istonda kunjut yetishtirish jarayonining barcha asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari sezilarli darajada o‘zgarib, ekinning bozor talabi, eksport imkoniyatlari va agrotexnologiyalar darajasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab trendlarni namoyon qilgan (8-jadval).

8-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida kunjut yetishtirishning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari¹³

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Yillar							2024-yilda 2010-yilga nisbatan o‘zgarish	
			2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024	Miqdoriy, +/-	Nisbiy, marta
1	Ekin maydoni	ming ga	0,56	3,53	7,13	9,23	10,28	8,52	7,27	6,70	12,90
2	Hosildorlik	s/ga	14,20	7,92	12,63	12,79	10,51	16,08	8,40	-5,80	0,59
3	Yalpi hosil	ming tonna	0,80	2,80	9,00	11,80	10,80	13,70	6,10	5,30	7,63
4	Sotish bahosi	ming so‘m/kg	9,70	14,40	25,11	24,76	26,50	21,45	28,00	18,30	2,89
5	Tannarxi	ming so‘m/kg	6,10	9,80	14,83	14,92	15,62	13,88	16,36	10,26	2,68
6	Foyda	ming so‘m/kg	3,60	4,60	10,28	9,84	10,88	7,57	11,64	8,04	3,23
7	Jami daromad	mlrd. so‘m	7,76	40,32	225,99	292,17	286,20	293,87	170,80	163,04	22,01
8	Jami xarajatlar	mlrd. so‘m	4,88	27,44	133,47	176,06	168,70	190,16	99,82	94,94	20,46
9	Yalpi foyda	mlrd. so‘m	2,88	12,88	92,52	116,11	117,50	103,71	70,98	68,10	24,65
10	Rentabellik	%	59,02	46,94	69,32	65,95	69,65	54,54	71,11	12,09 punkt oshgan	

¹³ Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2010–2024 yillar davomida O‘zbekistonda, xususan Qoraqalpog‘iston Respublikasida kunjut yetishtirish jadal rivojlandi. Ekin maydonlari 12,9 baravar kengayib, yalpi hosil 7,6 baravar oshdi. Bu jarayon kunjutga bo‘lgan eksport talabi va bozor narxlarining 2,9 baravar ko‘tarilishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi. Shu bilan birga, kengayish ekstensiv xarakterda kechgani sababli hosildorlik 41% ga kamaydi, tannarx esa 2,68 baravar oshdi. Natijada umumiy xarajatlar sezilarli o‘shishiga qaramay, foyda 3,2 baravar, rentabellik esa 12,1 punktga oshdi.

Kunjut ishlab chiqarishdan tortib, qayta ishlash va tayyor mahsulotni eksport qilishgacha bo‘lgan qiymat zanjiri ko‘plab bosqichlardan iborat. Har bir bo‘g‘inda iqtisodiy samaradorlikka ta’sir etuvchi omillar mavjud bo‘lib, ular umumiy rentabellik, mahsulot sifati va raqobatbardoshlikka bevosita ta’sir qiladi (3-rasm).


Resurslar bilan ta’minlash	<ul style="list-style-type: none"> • Sifatli urug‘lik materiallari, mineral va organik o‘g‘itlar • O‘simliklarni himoya qilish vositalari • Sug‘orish texnologiyalari (tomchilatib sug‘orish, quvurlar, nasoslar) • Qishloq xo‘jaligi texnikalari (traktor, seyalka, kultivator) • Servis xizmatlari va agrotexnik konsultatsiya
Kunjut yetishtirish	<ul style="list-style-type: none"> • Yerga ishlov berish, ekish, parvarishlash (chopiq, sug‘orish, o‘g‘itlash) • Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash • Hosildorlikni oshirishga qaratilgan agrotexnik tadbirlar • Fermerlarning mehnati va texnika xarajatlari
Hosilni yig‘ib olish va dastlabki qayta ishlash	<ul style="list-style-type: none"> • Qo‘l yoki mexanizatsiyalashgan yig‘im-terim • Tozalash (aralashmalardan ajratish), quritish, saralash • Sotuvga tayyorlash (birlamchi qadoqlash)
Saqlash va ichki logistika	<ul style="list-style-type: none"> • Omborlarda saqlash, namlikni me’yorida ushlash • Zararlarni kamaytirish, mahsulotni qayta ishlash zavodigacha tashish
Kunjutni qayta ishlash	<ul style="list-style-type: none"> • A) Birlamchi qayta ishlash: Tozalash, saralash, qovurish; Yirik toza urug‘ eksporti • B) Ikkinchi darajali qayta ishlash: Kunjut moyi ishlab chiqarish; Tahina (kunjut pastasi); Kunjutli shrot, kunjut kukuni; Shaqildoq urug‘lar, non uchun tayyor kunjut • D) Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari: Kunjutli shirinliklar (halva, energetik batonchalar); Kunjutli yog‘och bo‘yoq materiallari (spetsial sanoat mahsulotlari)
Qadoqlash va brendlash	<ul style="list-style-type: none"> • Mahsulotni bozorga mos qadoqlash • Standartlashtirish (ISO, HACCP, organik sertifikatlar) • Mahalliy va xalqaro brend yaratish
Eksport yoki ichki bozorga yetkazish	<ul style="list-style-type: none"> • Eksportchilar, brokerlar, logistika kompaniyalari • Ichki va tashqi bozorlarga yetkazib berish • Bojxona jarayonlari, Importchilar bilan shartnomalar • Transport xarajatlari
Tashqi bozorda sotish	<ul style="list-style-type: none"> • Import qiluvchi korxonalar tomonidan qayta ishlash • Chakana savdo tarmoqlariga yetkazish • Restoran va oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilarga sotish • Iste’molchilarga yetkazish

3-rasm. Kunjut yetishtirishda qiymat zanjirining shakllanishi¹⁴

¹⁴ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Qoraqalpog‘istonning agroiklimiy sharoiti, suv resurslari cheklanganligi va xalqaro bozor talablari nuqtayi nazaridan qaralganda, kunjut - strategik va eksportbop ekin sifatida katta iqtisodiy ahamiyatga ega.

Uning yetishtirish maydonlarini kengaytirish, suvni tejavchi texnologiyalarni joriy etish, mahalliy qayta ishlash sanoatini rivojlantirish orqali Qoraqalpog‘iston agrar sektorining barqaror va daromadli rivojlanishini ta‘minlash mumkin. Qoraqalpog‘iston Respublikasida kunjut yetishtirish borasida SWOT tahlili amalga oshirildi (4-rasm).




4-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasida kunjut yetishtirish borasida SWOT tahlili¹⁵

Dissertatsiyaning “Agrar tarmoqda kunjut yetishtirish iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘nalishlari” nomli uchinchi bobida kunjut yetishtirishda nobudgarchiliklarning oldini olish va strategik rivojlantirish imkoniyatlari, kunjutni qayta ishlash va eksport qilish orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlari, kunjut yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish o‘rganildi.

Kunjut yetishtirish Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan agrar yo‘nalishlardan biridir. Global bozor talabining barqaror o‘sishi, mahsulotning yuqori qo‘shilgan qiymatga ega ekanligi va suv resurslarini tejaydigan agrotexnik xususiyatlari kunjutni hududni iqtisodiy jihatdan diversifikatsiya qilishning eng muhim manbalaridan biriga aylantirmoqda. Kunjut yetishtirishni

¹⁵ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

strategik rivojlantirish tizimli yondashuvni, qiymat zanjiri bo'yicha modernizatsiyani va davlat-xususiy sektor hamkorligini talab qiladi (5-rasm):



5-rasm. Kunjut yetishtirishni strategik rivojlantirish imkoniyatlari¹⁶

Kunjut yetishtirishni jadallashtirish, qo'shilgan qiymat zanjirini chuqurlashtirish va eksport salohiyatini oshirish uchun klaster tizimini joriy etish eng samarali strategik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Kunjutning suvga kam talab qilishi, qurg'oqchilikka chidamliligi, yuqori eksport narxi va qayta ishlash uchun keng imkoniyatlar yaratishi sababli u klasterlash uchun eng maqbul ekinlardan biridir. Klaster modeli fermerlar, qayta ishlash korxonalari, ilmiy muassasalar va logistika infratuzilmasi o'rtasidagi kooperatsiyani mustahkamlaydi hamda tarmoqning umumiy samaradorligini sezilarli oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida kunjutchilikning klaster modelining o'z ishtirokchilari bo'lishi lozim (6-rasm).

Fermer xo'jaliklari	• xomashyo yetishtiradi.
Kooperativ markazi	• texnika, urug'lik, o'g'it va agroservis ta'minoti.
Qayta ishlash korxonasi	• yog', tahini, shrot, tozalangan kunjut.
Eksport logistik markazi	• kalibrlash, qadoqlash, sertifikatlash.
Ilmiy markaz	• seleksiya, agrotexnika, monitoring.
Bank va investorlar	• moliyalashtirish.

6-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida kunjutchilik klasteri ishtirokchilari¹⁷

Klaster modelini tashkil etish uchun investitsiya dasturi ishlab chiqildi.

¹⁶ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

¹⁷ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

9-jadval

Kunjut yetishtirish va qayta ishlashni rivojlantirish bo'yicha investitsiya dasturi (2025–2030 yillar)¹⁸

№	Investitsiya yo'nalishi	Tadbirlar mazmuni	Investitsiya miqdori (mln. USD)
1	Urug'chilik va agrotexnika	– Urug' yetishtirish markazi qurish – Lazerli tekislagichlar xaridi – Seyalka, kultivator va agrotexnika parkining yangilanishi – Agrotexnik o'quv markazi tashkil etish	5,8 (1,2 mln + 3,6 mln + 1,0 mln)
2	Suv tejaydigan texnologiyalar	– 10 ming gektarga tomchilatib sug'orish tizimi – Sho'rlangan maydonlarda meliorativ ishlar	9–12
3	Qayta ishlash sanoati	– 30 t/kun quvvatga ega yog' zavodi – 10 t/kun tahin va gomasi ishlab chiqarish liniyasi – 1 t/soat kalibrlash va qadoqlash liniyasi	12–15
4	Logistika va eksport infratuzilmasi	– Sertifikatlashtirish markazi – Sovutkichli ombor – Konteyner terminali	4,5
5	Raqamlashtirish	– Fermerlar uchun agro-kuzatuv mobil platformasi – Suv sensorlari va tuproq namligi monitoringi tizimi	1–1,5

Yuqorida keltirilgan 9-jadval ma'lumotlar asosida klaster tashkil etish orqali kutilayotgan natijalari quyidagicha bo'ladi:

1. Hosildorlik 10–12 s/ga dan 15–18 s/ga ga oshadi;
2. Qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat 2,3 baravar oshadi;
3. Eksport hajmi yiliga 10–20 ming tonnagacha yetadi;
4. 1500–2000 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Kunjut yetishtirish va qayta ishlashni rivojlantirish bo'yicha 2025–2030 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturining iqtisodiy samaradorligi chuqur tahlil qilinganda, loyiha nafaqat agrar tarmoqni modernizatsiya qilish, balki hududning eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy infratuzilmasini shakllantirishga xizmat qiluvchi strategik ahamiyatga egaligi aniqlanadi.

10-jadval

Loyihaning iqtisodiy samaradorligi¹⁹

№	Ko'rsatkich	Qiymat
1	O'rtacha har gektar sof foyda	1000–1200 USD
2	20,000 gektarda yillik sof foyda	20–24 million USD
3	Investitsiya qaytish muddati (ROI)	4–5 yil

10-jadvalda kunjut yetishtirish va qayta ishlashni rivojlantirish bo'yicha investitsiya dasturi o'zining iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy samaradorligi bilan O'zbekiston agrar tarmog'ining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan strategik loyiha sifatida e'tirof etilishi mumkin. Yuqori rentabellik, qisqa qaytish muddati, eksport bozorlariga kirish imkoniyatlari va qo'shilgan

¹⁸ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

¹⁹ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

qiymatni oshiruvchi mexanizmlar ushbu loyihaning iqtisodiy samaradorligini aniq tasdiqlaydi.

Tadqiqotlar davomida kunjut yetishtirish, uni qayta ishlash va eksport qilish holatlarida samaradorlikning o'zgarib borishi aniqlanildi. Kunjutni qayta ishlash texnologiyalaridan foydalangan holda maksimal iqtisodiy qiymatga ega mahsulotlar olinadi (11-jadval).

11-jadval

Kunjutni dastlabki qayta ishlash natijasida olinadigan mahsulotlar (1000 kg)²⁰

№	Tarkibiy qism	Miqdori	Chiqadigan mahsulot
1	Moy	450-600 kg (o'rtacha 55%)	Premium oziq-ovqat yog'i, farmatsevtik yog'
2	Oqsilli qoldiq (shrot/uni)	350-450 kg	Proteinli oziq-ovqat va yem
3	Antioxidant ekstraktlar	5-10 kg	Sezamin, sezamol – farmatsevtika
4	Pusta va selluloza moddalar	80-100 kg	Biopolimer, qadoqlash materiallari

